

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**QUYI BO'G'INDA SUV RESURLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA SUV  
ISTE'MOLCHILARI ORASIDAGI MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH CHORA-TADBIRLARI  
TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda iqlimning global o'zgarishi natijasida kuzatilayotgan suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida suv resurslarini boshqarish, ularning hisobi va hisobotini yuritish hamda suv munosabatlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, suvdan tejimli va samarali foydalanish yuzasidan mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramasdan, quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish, suv tanqisligi sharoitida iste'molchilar o'rtasida suv taqsimlash, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda suvdan foydalanish samarasi pastligicha qolmoqda.

Suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hisobotini to'laqonli yuritish, suv iste'molchilari orasidagi munosabatlarni takomillashtirish hamda ushbu jarayonlarga xususiy sektorni keng jalb qilish maqsadida:

1. Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va aholi tomorqalarini suv resurslari bilan ishonchli ta'minlash;

irrigatsiya tizimlari va sug'orish tarmoqlarining hamda ulardagi gidrotexnika inshootlarini doimiy texnik soz holatda ushlab turish;

yirik qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni o'z hududida suvni boshqarish va taqsimlash ishlariga jalb qilish;

iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta'minlashga oid davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish bo'yicha davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini keng joriy etish;

suvning hisobi va hisobotini inson omiliga minimal ravishda bog'liq bo'lgan avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yuritish.

2. Suv xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar hokimliklarining:

qishloq xo'jaligi yerlari o'z hisobida mavjud bo'lgan klasterlarga o'zlariga tegishli maydonlardagi barcha suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqaruvga berish;

meva-sabzavotchilik hamda sholichilikka ixtisoslashgan tumanlar suv xo'jaligi obyektlari boshqaruviga davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy sektorni jalb qilish;

mazkur bandning **ikkinchi** va **uchinchi xatboshisida** nazarda tutilmagan qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yerlarida faoliyat ko'rsatayotgan suv iste'molchilari va tuman irrigatsiya bo'limlari o'rtasida suv yetkazib berish va suv xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

3. Mazkur qarorning 2-bandi **ikkinchi** va **uchinchi xatboshisida** nazarda tutilgan suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqaruvga berishda klasterlar o'z hisobiga olgan yer maydonlarida, suv xo'jaligi obyektlarini boshqaruvga olgan xususiy korxonalar esa xizmat ko'rsatish hududida:

mavjud bo'lgan barcha suv xo'jaligi obyektlarini mustaqil boshqaradi;

dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalarini belgilangan tartibda suv olish limiti doirasida suv bilan ta'minlaydi;